

ZARGARLIK ZEB-ZIYNAT BUYUMLARI QISMLARI NOMLARINI IFODALOVCHI TERMINLAR

Pardayeva Izzatoy

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, GulDU

Izzat@gmail.com

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Qashqar boldog', sirak, sirg'a, anjir, boldoq, quyosh, oy, yulduz, suv.

Annotatsiya

Zargarlik terminologiyasida zeb-ziyarat buyumlari qismlarini anglatuvchi o'nlab terminlarni o'z ichiga olgan kichik tematik guruh yuzaga kelgan. Ayni shunday terminlar ham kasb-hunar egalari leksikasida tez-tez ishlatalib turilgan. Bu leksik birliklar zargarlik terminologiyasining mulki bo'lganligidan ular ham lingvistik nuqtai nazardan o'rganilishiga molikdir.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Borliqdagi har bir narsa-predmet - tabiat mahsuli hisoblanadimi, odam qo'li bilan yaratilgan bo'ladimi, bundan qat'iy nazar, muayyan qismlardan tuzilgan, yasalgan, yaratilgan bo'ladi. Masalan, tabiat mahsuli bo'lmish o'simlik, shox, tana, ildiz, barg, novda, kurtak, changchi kabi o'nlab qismlardan tashkil topgan. Inson qo'li bilan yaratilgan har bir narsa-predmet ham ana shunday xususiyatga ega.

Chunonchi, qadimda yaratilgan arava, g'ildirak, o'q, gupchak, shoti kabi o'nlab qismlardan, zamonaviy mashina esa minglab qismlardan hosil qilingan. Mana shu asnoda ming yillab ilgari asosan ayollarning husni-ko'rkiniz ko'z-ko'z qilishga xizmat etadigan har xil taqinchoqlar - zeb-ziyarat buyumlari qismlari haqida ham bemalol gap yuritish mumkin.

Fikrimizning dalili uchun «Ma'danga bitilgan qo'shiq» nomli asarga murojaat etamiz. Unda, chunonchi, shunday deyilgan: Ingichka simdan to'qilgan pastki qismiga g'oyatda nafis to'qima gul qo'ndirilgan, katta gardish ko'rnishdagi sirg'alar keng rasm bo'lgan. Asl marjondan tayyorlangan va xilma-xil naqshlar (gullar)¹ izlari tushirilgan.

Mo'tabar manbalardan birida zargarlik zeb-ziyarat buyumlarini tayyorlovchi zargarlarning

¹ Gul deyilganda «mis, temir, kumush, oltin va boshqa ma'danlardan yasalgan buyumlarning yuziga tushirilgan naqsh, bezak» ma'nosini anglashiladi.

mashaqqatli mehnati haqida gap ketar ekan shunday deyiladi: «Naqsh va gullarning jozibador chiqishi uchun ustalar barcha jarayonlarni bir-bir bosib o'tganlar: ma'danni quyish, toplash, kandokorlik, o'yma naqsh tushirish, bosma naqsh tushirish, qoralash, oqlash, donalarni qadab chiqish, ingichka simlardan nafis to'rlar yasash, devor nusxa qadama naqshlar yasash, tilla suvi yogurtirish - qanchalik mayda ishlar. Sim to'rga zig'irdan donachalar qadab yasalgan nafis to'garak. Naqsh shu qadar ma'nodor jilvalanadiki, go'yo donachalar ming xil rangda yulduzday jimir-jimir qilib, buyum naqshining bir jozibasiga o'n joziba qo'shib yuborgan. Buyum yuzasiga yassilangan simni buklab-buklab, har buklam o'rtasiga toshlar qadab yasalgan devornusxa qadama naqshni bajarish alohida mahorat talab qiladi. Bundan ilgari ham bo'lganidek, XIX asrda tilla gardish uzra, xuddi baliq tangachalariga o'xshatib, feroza qadab chiroyli va bejirim naqshlar yasash keng urf bo'lgan. Bu naqshning atamasi ham shundan kelib chiqib, «Baliq tanga» deyilgan.

XIX asr zargarlik zeb-ziynatlarining shakli va bezaklari uchun bir-biriga sira o'xshamagan uslublar, islimiy, geometrik, samoviy va maxluqot dunyosi asos qilib olingan. Davrlar o'zgarishi mobaynida kishilarning tasavvuridagi naqqoshlik turlari ham o'zgarib bordi, ko'xna san'at izlarini saqlab qolgani holda yangi zamon san'ati shakllandi. XIX asr kishilari uchun quyosh, oy, yulduz, suv, hayvonlar parrandalar, baliqlar va hokazolarning tasviri noma'lum, notanish, yot emas edi. Bular kishilarni qurshab turgan borliq tabiatning o'zi bo'lib, u san'atda ham o'z in'kosini topmasligi mumkin emas edi»².

Mana shu sabablar bilan chambarchas bog'liq ravishda o'zbek tilining zargarlik terminologiyasida naqshlar (gullarning) nomlarini ifodalaydigan yana bir tematik guruh qaror topgandir. Materiallar tahlilidan kelib chiqib, bu tematik guruhda asosan, islimiy bezak naqshlari nomlari ishlataladi. Ma'lumki, islimiy, klassik naqsh turlaridan iborat bo'lib, bir-biriga uzlusiz ulanib, o'ralib ketadigan palaksimon, o'simliksimon naqshlarining takrorlanishidan tashkil topadi. Islimiy bir-biri bilan chirmashib ketadigan chiziqlar orasiga ishlanadigan o'simlik barglari, mevasi, turli buyum shaklliri, hayvonlar, qush va h.k. tasviri sifatida ham foydalilaniladi³.

Zargarlik terminologiyasining bu tematik guruhchasidan islimiy naqshlarning xillarini ifodalovchi quyidagi terminlar mavjud:

a) asosi o'simliklar yoki ularning qismlari, mevalari nomlaridan iborat islimiy naqsh turlari. Ularni ifodalash uchun *anjir* (qashqarbaldoq tanasining yuzini bezash uchn ingichka, nozik tilla yoki kumush donachalardan tuzilgan naqsh kompozitsiyasining anjirsimon naqsh turi), *atirgul* (bilaguzuk

² Абдуллаев Т., ва б. Маъданга битилган кўшик, 146-147-бетлар.

³ Ўзбек Совет энциклопедияси. 5 том.-Тошкент, 1974, 96-бет.

yuziga o‘yilgan nafis naqsh elementlarining bir turi, ochilib turgan atirgul tasvirini eslatadi), ***tolbargi*** (bilaguzukka o‘yilgan, islimi tolning bargiga o‘xshatilgan xili), ***tolgul*** (bilaguzukning ikki boshiga solingan bir turli naqsh), ***g‘o‘za*** (sochpopukdagi gul nomli qismning atrofiga osilgan, kattaligi mosh (korall), dur, la’l, zumrad, sadaf, nafis va siyqa tilla va kumush munchoqlar, qubbachalar, zanjirlar, bosma gulli tangachalar, rangli tosh shodalari va hokazolar ming xilda tovlanib turuvchi uzun shokila sirg‘a gardishining qirg‘og‘i bo‘ylab qadab chiqilgan. Boshqa sirg‘alarda esa nafis gulning o‘rniga simlardan ulagich yasab, xuddi shokililardagidek, munchoqlar qadalgan. Qashqar boldog‘I ham shularga yaqin tursa-da, ranglari unchalik o‘ynoqi emas. Bunday sirg‘alar gardishining pastki qismining deyarli o‘rtasigacha qalin sim to‘qimalaridan kashta yasalgan. Ko‘pincha donachalardan, ba’zan bir necha mayda rangli toshlar qo‘shib kashtaga ko‘z o‘rnatilgan. Sirg‘aning quyisidan bir necha yo‘l dur shodasi qadalgan yoki har bir durning tevaragi nozik gardish chambar bilan aylantirib qo‘yilgan»⁴.

Mana shu sabablarga ko‘ra, zargarlik terminologiyasida zeb-ziynat buyumlari qismlarini anglatuvchi o‘nlab terminlarni o‘z ichiga olgan kichik tematik guruh yuzaga kelgan. Ayni shunday terminlar ham kasb-hunar egalari leksikasida tez-tez ishlatalib turilgan.

Bu leksik birliklar zargarlik terminologiyasining mulki bo‘lganligidan ular ham lingistik nuqtai nazardan o‘rganilishiga molikdir.

Endi bevosita aniq misollarga murojaat etamiz. Yuqorida qulorra taqiladigan sirg‘a haqida so‘z yuritib, uning juda ko‘p tur va xillari borligi haqida to‘xtab o‘tgan edik: andijoncha ziraboldoq, qashqarboldoq, boldoq va boshqalar. Ularning barchasi, tabiiyki, muayyan qismlardan tashkil topgandir. Shunisi ham borki, ulardan ayrimlarining qismlari bir-biridan farqlanadi. Bunday qismlar nomlari jamuljam qilinganda quyidagi «manzara», aniqrog‘i qismlar nomlari hosil bo‘ladi: ***kokil*** (bezaklarning osilib turgan qismi), ***halqa*** (qulorra osiladigan qismi), ***tana*** (band va kokillardan boshqa qismi), ***oyoq*** (sirg‘aning panjarasi oralig‘iga o‘rnatilgan mayda-mayda to‘garak donachalar), ***palla*** (sirg‘a yuzadagi ko‘z o‘rnatiladigan xonachalar va b.)

Ayollar sochlariga taqadigkan bezak buyumlaridan biri ***sochpopuk*** (choch popuk ham deyiladi). Anchayin murakkab bezak buyumlaridandir. U bir talay qismlardan iboratki, ular quyidagi nomlar bilan ataladi: ***Popuk, chiyratma ip, g‘uppa, qo‘ng‘iroqcha, naycha, kokil, po‘r, gardana, kirkira, bo‘rdak, karnay, kartmona, qubba, qalqon, panjara, gul, bog‘, g‘o‘za, tana*** va boshqalar.

Tabiiy, zargarlik zeb-ziynat buyumlari nomlarining barchasi o‘z definitsiyasiga ega bo‘lib, kasb-kor egalari ulardan har qaysisi to‘g‘risida aniq tushunchaga egadirlar. Fikrimizning isboti uchun

⁴ Абдуллаев Т., ва бошқалар. Маъданга битилган қўшиқ, 149-150-бетлар.

quyidagi ana shunday qismlardan ayrimlarining definitsiyasini keltiramiz. **Zivich**: ingichka metall simdan urib-urib yasalgan bo‘lak. Bu bo‘lak sirg‘alarga, chunonchi, shaldoqqa taqiladi, **kartmona**: bo‘yinga taqadigan bezak ashylardagi kumush yo tilladan ishlangan, medalon qismlardan biri, **to‘linoy**: qashqarboldoqning bir qismi, **g‘o‘za**: sochpopukdagi gul nomli qismning atrofiga osilgan kattaligi moshday, to‘garak, ichi hovol bo‘lakchalar, **yarimoy**: qashqarboldoqning yarimoy shaklidagi bir qismi va b.

Inson tomonidan yaratilgan har qanday asbob-uskuna mashina-mexanizm va boshqa vositalar muayyan qismlardan iborat dedik. Shunisi ham borki, ma’lum bir qismlar deyarli bir xil vazifani bajaradi (yasalgan predmetning katta-kichikligiga qarab kattaroq bo‘lishi mumkin). Shunday ekan, bunday qismlarning har birini alohida-alohida nom bilan atash uchun hojat qolmaydi ular hajmining qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, bir xil atalaveradi. Masalan, **o‘q** (ikki uchiga g‘ildirak o‘rnatilgan yog‘och yoki metaldan yasalgan g‘o‘la) tushunchasini olaylik. U aravada qo‘llanadimi, velosiped g‘ildiragida bo‘ladimi, ulkan gidrotormoqdan joy oladimi, baribir, o‘q termini bilan ifodalanaveradi. Shu nuqtai nazardan yondoshlar ekan, bezak buyumlari qismlarining ayrim nomlari xususida ham xuddi shunday deyish mumkin bo‘ladi. Bunday terminlarni ma’lum ma’noda polesemantik xarakterga ega deyish ham mumkin. Ana shunday terminlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

Jimjima-sirg‘a va zebigardon kabi bezaklarning kirkira sim o‘rab yasalgan spiralsimon qismi.

Panjara-ikki xil bezak buyumining qismi atamasi: a) yapaloq bilaguzukning ikki boshidagi panjarasimon o‘rni; b) sochpopukka kosacha nomli bo‘lakning ostiga o‘rnatilgan panjarasimon qismi.

Kosacha - ikki xil bezak buyumi qismining nomi: a) sochpopuk g‘upiasi yoki juftlamasining yarmini tashkil etgan bo‘lak; b) ziraboldoqning pastki qirrasiga o‘rnatilgan mayda bo‘lakcha.

Palla - qashqarzirakning yarimoy nomli qismining yuzidagi ko‘z (tosh) o‘rnatilgan xonachalar (uzukda buni ko‘z deyiladi). Pallaga ko‘z o‘rnatilmaydi, ko‘zi o‘zidan chiqarilganini ko‘zsiz palla, tosh o‘rnatilganini ko‘zli palla deyiladi.

Oyoq- ikki xil bezak buyumi qismining nomi: a) sirg‘aning oyog‘i, shokilasi; b) qo‘ltiqtumorning tagidagi osiltirib qo‘yilgan qismlar.

Shuni qayd etish lozimki, faqat bittagini bezak buyumiga xos qismlar va ularning nomlari ham mavjud. Lekin bunday qism nomlari kam miqdorni tashkil etadi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Po‘r - sochpopuk gardanasiga taqiladigan, to‘garak, ichi bo‘sh kumushdan yasalgan shokilaning bir turi.

Bodomcha - tillabargakka o‘rnatilgan mayda shokillar.

Juftlama - bir-biriga juftlab yopishtirilgan kumush bo‘laklar bo‘lib, u ikkita kosachadan iborat

bo‘ladi. Juftlama faqat sochpopukda bo‘ladi.

Jiyak - bo‘yinga taqiladigan tumorcha (yoki bozvant)ning ostki va ustki qopqoqlari orasiga qo‘yib jpislashtirilgan ensiz, uzunchoq kumush bo‘lakdan iborat qism va b.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Doniyorov R.O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminlari tarixidan. -Toshkent, 1973.270 bet
2. Ibrohimov S. Farg‘ona shevalarining kasb – hunar leksikasi. Toshkent, 1959 yil, 157 -bet
3. Shamsiddinov H. Umumiste’moldagi so‘zlardan leksik – semantik usul bilan yasalgan terminlar va ularni tartibga solishG’G’ O‘zbek tili ilmiy texnikaviy terminologiyani tartibga solish printsiplari, Toshkent. 1991, 161- bet
4. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent, 2010, 7 –18- bet.